Zokir ARIFDJANOV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN. Teacher of the department of classical oriental literature and source studies.
zokir-zarrinpaint@inbox.ru

خواستن [XĀSTAN] SODDA FE'LINING FUNKSIONAL EKVIVALENTLARI VA ULARNING FORMAL INVARIANTLARI

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЭКВИВАЛЕНТЫ ПРОСТОГО ГЛАГОЛА خواستن [XĀSTAN] И ИХ ФОРМАЛЬНЫЕ ИНВАРИАНТЫ

FUNCTIONAL EQUIVALENTS OF THE SIMPLE VERB خواستن [XĀSTAN] AND THEIR FORMAL INVARIANTS

Kalit so'zlar: *sodda fe'llar,* خواستن *[xāstan] sodda fe'li, leksik-semantik variantlar, funksional ekvivalent, ma'no guruhlari, invariant ma'no, formal invariant.*

Ключевые слова: *простые глаголы, простой глагол* خواستن *[xāstan], лексико-семантические варианты, функциональные эквиваленты, смысловые группы, инвариантное значение, формальный инвариант.*

Keywords: *simple verbs, simple verb* خواستن *[xāstan], lexical-semantic variants, functional equivalent, meaning groups, invariant meaning, formal invariant.*

Biror bir fe'lning invarianti haqida gap borganda albatta shakliga ko'ra har xil bo'lgan, ammo tilda bir xil mazmuniy funksiyani bajaradigan formal (shakliy) variantlik turi ya'ni *funksional ekvivalent* haqida to'xtalmasdan iloji yo'q. Chunki variant bor bo'lgan joydagina invariant haqida so'z yuritiladi.

Oldingi tadqiqotlarimizda hozirgi fors tilida o'zining muhim ish-harakat va jarayonlarni ifodalashdagi faol ishtiroki bilan alohida o'rin tutadigan خواستن [xāstan] sodda fe'lining eng ko'p qo'llaniladigan ma'nolari aniqlangan edi. Mazkur maqolada esa خواستن [xāstan] sodda fe'lining ma'nolarini tahlilga tortdik. Natijada uning quyidagi ma'nolari yoki ma'no guruhlarini alohida ajratib olishni ma'qul topdik:

1) a) istamoq, xohlamoq; b) niyatida bo'lmoq, ...moqchi bo'lmoq; d) mayl qilmoq, moyil bo'lmoq, istagi bo'lmoq; e) orzu qilmoq; f) tilamoq;

2) a) so'ramoq, iltimos qilmoq; b) talab qilmoq; d) taqozo qilmoq;

3) a) chaqirmoq, chorlamoq, da'vat qilmoq; b) taklif qilmoq; d) chaqirmoq, chaqirib olmoq (*majburlash ohangida*);

4) ehtiyoji bo'lmoq, (unga) kerak (zarur) bo'lmoq;

5) ko'ngli tusamoq, ko'rgisi (birga bo'lgisi) kelmoq.

Aytib o'tish lozimki, خواستن [xāstan] sodda fe'lining biz keltirib o'tgan ushbu besh ma'no guruhidan har birining, hatto ushbu ma'no guruhlari ichidagi har bir ma'noning sodda, prefiksli va qo'shma fe'llar ko'rinishidagi variantlari mavjud bo'lib, bir maqola doirasida ularning barchasini ko'rib chiqishning iloji yo'q. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu so'zning u anglatadigan ma'nolarning ikkinchi guruhiga tegishli bo'lgan *a) so'ramoq, iltimos qilmoq; b) talab qilmoq* ma'nolarida qo'llanilgan holati, boshqacha qilib aytganda, *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarida qo'llaniladigan خواستن [xāstan] sodda fe'lining sodda va qo'shma fe'llar ko'rinishidagi variantlari to'g'risidagina so'z yuritamiz.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, fors tilida *so'ramoq*, *iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq o'zbek tilida mavjud bo'lgan farq darajasida bo'lmasdan, bir-biriga anchagina yaqin ma'nolar hisoblanadi va muayyan situativ holatlardagina *so'ramoq*, *iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, o'zbek tilida bir-biridan alohida bo'lgan ikki ma'no hisoblanadigan *so'ramoq*, *iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolarining fors tilidagi خواستن [xāstan] sodda fe'li va uning variantlari vositasida berilishi holatini quyidagi ikki ma'no guruhiga bo'lib ko'rsatishimiz mumkin:

1) so'ramoq, iltimos qilmoq;

2) so'ramoq, talab qilmoq.

Ya'ni, خواستن [xāstan] so'zi *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarida qo'llanilgan umumiy holatlarda *iltimos qilmoq, talab qilmoq* kabi ikki ma'no ottenkasiga ega bo'lgan umumiy *so'ramoq* ma'nosini anglatsa, boshqa holatda aynan *iltimos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq,* ikkinchisida esa aynan *talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini beradi.

Hozirgi fors tilida turli o'rinlarda خواستن [xāstan] sodda fe'li anglatadigan *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga variant (funksional ekvivalent) sifatida eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi fe'llarni aniqladik:

درخواست کردن [darxāst kardan]

از او درخواست کردم ... از خانه ما خارج شود. (بزرگ علوی، 7531:761)

Undan uyimizdan chiqib ketishini so'radim (talab qildim).

از نمایندگان مجلس که در حال بررسی بودجه سال 39 هستند درخواست می‌کنیم ردیفی نیز برای جمع‌آوری معتادان از خیابان ها در نظر بگیرند. (روزنامه کیهان، 2931)

Maqolada xāstan sodda fe'lining leksik-semantik variantlari asosida aniqlangan ma'no guruhlari, ularning funksional ekvivalentlari tadqiq qilinadi. Xāstan sodda fe'lining besh ma'no guruhi taklif qilinadi hamda maqola hajmi cheklanganligidan kelib chiqgan holda faqat uning ikkinchi ma'no guruhiga oid bo'lgan so'ramoq, iltimos qilmoq; talab qilmoq ma'nolarida qo'llaniladigan variantlari haqida so'z yuritiladi. Funksional ekvivalentlar mo'tabar manbalar asosida aniqlanadi va turli xil adabiyotlardan keltirilgan misollar orqali tahlilga tortiladi. Tahlil natijalariga ko'ra har bir funksional ekvivalentlar ma'nosini o'zida jamlovchi invariant ma'nolar ya'ni iltimos qilmoq ma'nosining turli ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy ma'no hamda so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq ma'nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan barcha ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy, ya'ni invariant ma'nolar aniqlanadi va taklif qilinadi. Invariant ma'no funksional ekvivalentlardan birida mujassam bo'lishi, ya'ni mazkur fe'llar ushbu ma'no guruhlaridan har birida o'z invariantiga ega bo'lishi biroq ushbu fe'llar vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra bo'lingan ma'no guruhchalarining barchasida ham ma'noni ifodalovchi asosiy so'z vazifasida kela olmasligi haqida so'z yuritiladi, xulosalar keltiriladi hamda misollar orqali asoslanadi.

В статье исследуются смысловые группы, определенные на основе лексико-семантических вариантов простого глагола xāstan и их функциональные эквиваленты. Предлагается пять смысловых групп простого глагола xāstan и из-за ограничений статьи упоминаются только варианты со значениями «просить», «требовать», которые относятся ко второй смысловой группе. Функциональные эквиваленты определяются на основе авторитетных источников и анализируются на примерах, приведенных из различной литературы. Согласно результатам анализа, инвариантные значения, объединяющие в себе смысл всех функциональных эквивалентов, то есть общее значение, которое включает в себя различные смысловые оттенки значения просить также определяются и предлагаются общие, то есть инвариантные значения, содержащие в себе смысл каждого функционального эквивалента, выражающего различные смысловые значения «просить», «требовать». Инвариантное значение выражается в одном из функциональных эквивалентов, то есть эти глаголы имеют свой собственный инвариант в каждой из смысловых групп. В данной статье рассматривается вопрос о том, что эти инвариантные значения не во всех смысловых группах могут выступать в качестве основного смысловыражающего слова; приводятся выводы, основанные на примерах.

The article explores semantic groups defined on the basis of lexical-semantic variants of the simple verb xāstan and their functional equivalents.

Five semantic groups of the simple verb xāstan are proposed and, due to the limitations of the article, only options with meanings are requested; demand which belong to the second semantic group. Functional equivalents are determined on the basis of authoritative sources and analyzed using examples from various literature. According to the results of the analysis, invariant values that combine the meaning of each functional equivalents, that is, a common value that includes various semantic nuances of the value to ask, are also determined and offered are general, that is, invariant values that contain the meaning of each functional equivalent expressing different semantic meanings to ask; require. The invariant meaning is expressed in one of the functional equivalents, that is, these verbs have their own invariant in each of the semantic groups. This article addresses the issue of the fact that these invariant values may not act as the main semantic-expressing word in all semantic groups; conclusions based on examples are given.

Hijriy-shamsiy 1393 (milodiy 2014) yil byudjetini muhokama qilayotgan parlament deputatlaridan ko'chalarni giyohvandlardan tozalash uchun ham bir modda ko'zda tutishlarini so'raymiz.

تقاضا کردن [taγāzā kardan]

تقاضا کرد که کمی پیانو بزند. (بزرگ علوی، 7531:741)

Bir oz pianino chalay (chalsam maylimi), deb so'radi (iltimos qildi).

موعد مرخصی اداری ام سر آمده بود... یک هفته تمدید مرخصی تقاضا کردم. (صادق هدایت،1431:44)

Xizmat ta'tilimning muddati tugagan edi... Ta'tilni yana bir haftaga cho'zishlarini so'radim.

چرا شورای نگهبان از روحانی تقاضا کرد به منزل هاشمی برود؟ (روزنامه کیهان، 2931)

Nega Nazorat kengashi Ruhoniydan Hoshimiyning uyiga borishini so'radi ('talab qildi' ma'nosida)?

خواستار شدن [xāstār šodan]

تظاهر کنندگان در تایلند خواستار استعفای نخست وزیر شدند. (روزنامه کیهان، 2931)

Tailanddagi namoyishchilar Bosh vazirning iste'fosini talab qildilar.

تونی بلر مداخله غرب در سوریه را خواستار شد. (سایت خبرگزاری دانشجویان ایران)

Toni Bleyer G'arbning Suriya masalasiga aralashishini so'radi (talab qildi).

خواهان شدن [xāhān šodan]

با توجه به اقتصاد پویا و فرصت های بسیار خوب در ترکیه، خواهان افزایش سرمایه گذاری ایتالیا در کشورمان هستیم («عبد الله گل خواستار افزایش سرمایه گذاری ایتالیا در ترکیه شد»). (سایت خبرگزاری جمهوری اسلامی)

Turkiyadagi dinamik iqtisodiyot va o'ta qulay shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda, Italiyaning mamlakatimizdagi investitsiyalarini oshirilishini so'raymiz ("Abdullo Gul Italiyaning Turkiyadagi investitsiyalarini oshirilishini so'radi").

طلب کردن [talab kardan]

بقایی برای بار دوم از روحانی طلب یاری کرد. (سایت خبرگزاری صلح)

Baqoiy ikkinchi marta Ruhoniydan yordam (berishini) so‘radi.

طلبیدن [talabidan]

دبیرکل شورای جهانی کلیساها از جامعه جهانی کمک طلبید. (محبت نیوز، 1931)

Jahon cherkovlar kengashi bosh kotibi jahon hamjamiyatidan yordam so‘radi.

مطالبه کردن [motālebe kardan]

بانک ملت خسارت 028 میلیون دلاری از انگلیس مطالبه کرد. (سایت خبرگزاری تسنیم)

“Millat” banki Buyuk Britaniyadan unga yetkazilgan 820 million AQSh dollari miqdoridagi zararni to‘lashini talab qildi.

خواهنده شدن [xāhande šodan]

اگر اول شما و آخر شما ... گرد آیند و همه خواهنده گردند ... نقصان نیاید در مُلک من. (ابو نصر احمدی جام، 861:2731-961)

Boshidagilaringiz va oxiridagilaringiz ... yeg‘ilishib, barchalari (nimadir berishni) so‘rasalar ham ... mening mulkim kamayib qolmaydi.

طالب شدن [tāleb šodan]

U ko‘mak so‘radi. - وی طالب مساعدت شد.

استعلام کردن [este’lām kardan]

شورای رقابت تناژ محصولات خودروسازان را استعلام کرد. (پایگاه اطلاع رسانی عصر خودرو، 2991)

Raqobat kengashi avtomobilsozlardan ularning mahsulotlari tonnaji to‘g‘risida ma’lumot berishini so‘radi.

استدعا کردن [este’dā kardan]

از ایشان استدعا کردم که با من شطرنج بازی فرمایند. (بزرگ علوی، 7531:59)

Ulardan men bilan shohmot o‘ynashlarini so‘radim.

از مردم استدعا دارد که آرامش خود را مثل همیشه حفظ نماید. (محمد محمود، 1631:49)

Xalqdan o‘z osoyishtaligini har doimgidek avaylab-asrashini so‘radi.

تعارف کردن [ta’ārof kardan]

ایرانی‌ها به مهمان نوازی مشهور هستند و برای همین احساس می‌کنند برای پذیرایی بهتر از مهمان، باید مدام به آنها تعارف کنند تا میوه، شیرینی یا غذای بیشتری میل کند. (پایگاه اطلاع رسانی ابتکار، 2991)

Eronliklar mehmondo‘stliklari bilan tanilgan-dirlar. Shu sababli ham mehmonni yaxshiroq mehmon qilish uchun unga tinimsiz ravishda meva, shirinlik yoki ko‘proq ovqatdan olib o‘tirishini so‘rab turish (mulozamat qilish) kerak deb bilishadi.

خواهش کردن [xāheš kardan]

برای این آمده ام که از شما خواهش کنم آن را قبول کنید. (محمد مصدق، 0631:591)

Sizdan shuni qabul qilishingizni so‘rash (iltimos qilish) uchun kelganman.

خواهشمند بودن [xāhešmand budan]

خواهشمند است رسماً اعلام بفرمائید علت لغو مجمع بدون تعیین تاریخ جدید چیست؟ («اعضای مجمع فدراسیون تکواندو خواستار برگزاری سریعتر انتخابات شدند»). (سایت خبرگزاری جمهوری اسلامی)

Bosh assambleya yig‘ilishining yangi sanasini ma’lum qilmasdan turib, uning o‘tkazilishini bekor qilinishi sababi nimada ekanligini rasman ma’lum qilishingizni so‘raymiz (“Taekvando federatsiyasi bosh assambleyasi a’zolari saylovlarning tezroq o‘tkazilishini talab qildilar”).

من از خوانندگان دانشمند «سخن» خواهشمندم که در این کار دشوار چاره گری کنند. (خانلری، 8331:992)

Men “So‘xan” (jurnali)ning bilimdon o‘quvchilaridan ushbu qiyin ishda vaziyatdan chiqish yo‘lini topishlarini so‘rayman.

مسئلت کردن [mas’alat kardan]

از خدای مهربان سلامتی شما را مسئلت می کنم.

Mehribon xudodan sizga sog‘lik so‘rayman (Tabrik maktubida).

از خداوند متعال برای شما صبر مسئلت می کنم.

Olloh taolodan sizga sabr so‘rayman (Hamdardlik bildirib yozilgan maktubda).

بدینوسیله مصیبت وارده را خدمت شما و خانواده محترم تسلیت عرض نموده و از درگاه خداوند متعال برای آن مرحوم رحمت ... مسئلت می نماییم. (edu.kaums.ac.ir)

Siz va hurmatli oilangizga yetgan musibat yuzasidan hamdardlik bildirib, qudratli Ollohdan marhum uchun rahmat … so‘rayman.

دعا کردن [doā kardan]

هر یک از افراد ما در هر نمازی خدا را شکر می گویند و برای دوام این نعمت و موهبت دعا می کنند. (محمد علی جمال زاده، 7531:63)

Odamlarimizdan har biri har namozda xudoga shukrona qilib, ushbu ne’mat va marhamatning davomli bo‘lishini so‘raydilar.

باید رفت، دعا کرد که بهشان خوش بگذرد. (جلال آل احمد، 9431:101)

Borish kerak va (xudodan) ularning vaqtlari yaxshi o‘tishini so‘rash lozim.

التماس کردن [eltemās kardan]

هرچه التماس می کردم، کاغذ و قلم می خواستم، به من نمی دادند. (صادق هدایت، 1431:01)

Qanchalik iltimos qilmay, qog‘oz va qalam so‘ramay, menga berishmasdi.

برگزارکنندگان اجلاس ژنو 2 نیازمند حضور ایران در این اجلاس هستند و باید برای حضور ایران در این اجلاس التماس کنند («نقدی: اجلاس ژنو 2 بدون حضور ایران نتیجه ای برای مردم سوریه نخواهد داشت»). (سایت خبرگزاری جمهوری اسلامی)

Jeneva-2 uchrashuvi tashkilotchilari uchun Eronning ushbu uchrashuvda ishtirok etishi zarur bo‘lib, ular Eronning ushbu uchrashuvda ishtirok etishini so‘rashlari lozim (“Naqdiy: Jeneva-2

uchrashuvi Eronning ishtirokisiz Suriya xalqi uchun hech qanday natija keltirmaydi").

تمنا داشتن [tamannā dāštan].

از شما تمنا دارم وضع ما را دقیقاً در نظر بیاورید. (مرتضی مشفق کاظمی، 0431:181)

Sizdan bizning ahvolimizni aniq nazarda tutishingizni o'tinib so'rayman.

Shuningdek, o'tmishda خواستن [xāśtan] sodda fe'lining variantlari sifatida qo'llanilgan, bugungi kunga kelib esa arxaizmlarga aylangan quyidagi qo'shma fe'llar ham aniqlandi:

خواست کردن [xāśt kardan], خواستار کردن [xāśtār kardan], خواستاری کردن [xāśtāri kardan], خواستدار شدن [xāśtdār šodan], خواستداری کردن [xāśtdāri kardan], خواهان شدن [xāhān šodan], خواهشک کردن [xāhešak kardan], درخواه شدن [darxāh šodan].

Keltirilgan ushbu fe'llardan har birining fe'l qismini tashkil etuvchi ko'makchi fe'llarning o'zi ham bittadan tortib bir nechagacha funksional ekvivalentlarga ega bo'lib, bunda کردن [kardan] ko'makchi fe'li o'zining نمودن [nemudan], داشتن [dāštan] kabi, شدن [šodan] ko'makchi fe'li esa o'zining گشتن [gaštan], گردیدن [gardidan] kabi funksional ekvivalentlari bilan o'rin almashib keladi. Masalan, درخواست کردن fe'lining درخواست نمودن shaklida, تقاضا کردن fe'lining تقاضا نمودن va تقاضا داشتن shakllarida, مسئلت کردن fe'lining مسئلت نمودن va مسئلت داشتن shakllarida yoki خواستار شدن fe'lining خواستار گردیدن va خواستار گشتن shakllarida ham qo'llanilishini kuzatish mumkin.

Ko'rib o'tganimizdek, hozirgi fors tilida خواستن [xāśtan] sodda fe'li variantlarini yaratuvchi qo'shma fe'llarning yasalishida qo'shma fe'lning ot qismi sifatida خواستن [xāśtan] fe'lining o'tgan zamon va hozirgi-kelasi zamon negizlaridan yasalgan ot (fe'ldan yasalgan ot, harakat nomi) va sifatdosh turkumlariga oid so'zlar (درخواست, خواستار, خواهان, خواهش, خواهشمند, خواهنده), shuningdek, arab tilidan o'zlashgan ot (fe'ldan yasalgan ot, harakat nomi) va sifatdosh turkumlariga oid so'zlar (طلب, طالب, مطالبه, تقاضا, مسئلت, التماس) ishtirok etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nutqda takrordan qochish, nutqni chiroyli va rang-barang chiqishini ta'minlash, nutqda bir so'z vositasida ifodalangan ma'noga uning variantlari yordamida aniqlik kiritish, ma'noni turli leksik va sintaktik unsurlar bilan munosabatda munosib so'zlar bilan berishga bo'lgan urinish bilan birgalikda ko'zda tutilgan ma'noni ayni kontekstga xos so'z varianti bilan berishga harakat qilish funksional ekvivalentlik (variantlik)ni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. خواستن [xāśtan] sodda fe'li anglatadigan birgina *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalash o'rnida o'n sakkizta qo'shma fe'l (ushbu qo'shma fe'llardagi ko'makchi fe'llarning variativ shakllarini hisobga olmagan holda) ushbu fe'lning variativ shakllari vazifasida keladi. Fors tilida keng qo'llaniladigan خواستن [xāśtan] sodda fe'li ko'p ma'noli so'zlardan hisoblanib, bugungi kunda besh ma'no guruhiga kiruvchi o'n uch ma'noni ifodalashda qo'llaniladi.

خواستن [xāśtan] fe'lining qo'shma fe'l ko'rinishidagi variantlariga misol qilib keltirilgan fe'llarni خواستن [xāśtan] sodda fe'li bilan almashtirsak, gapning ma'nosida o'zgarish sodir bo'lmaydi va ushbu qo'shma fe'llar *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda خواستن [xāśtan] sodda fe'lining variantlari vazifasini bajara oladilar. Bunda faqat uslubiy cheklanish ko'zga tashlanadi.

Fe'llarning funksional ekvivalentlarini yagona invariant ma'no birlashtirib turadi va ana shu yagona invariant ma'no o'zaro variantlik munosabatida bo'lgan fe'llarning birida, ayrim holatlarda esa bir nechtasida, ya'ni formal yoki funksional invariant vazifasidagi fe'lda yoki fe'llarda mujassam bo'ladi. Biz misol tariqasida ko'rib o'tayotgan خواستن [xāśtan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlarining umumiy invarianti hamda ma'no guruhchalaridagi invariantlarini aniqlashimiz uchun ham ushbu funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan yagona invariant ma'noni aniqlashimiz kerak bo'ladi.

Hozir biz ayni bir so'z emas, balki o'zaro funksional ekvivalentlik munosabatiga ega bo'lgan bir necha so'z vositasida ifodalanadigan bir ma'noning turli ottenkalari asosida yotadigan asosiy va o'zgarmas yagona ma'no to'g'risida gapiramiz. خواستن [xāśtan] sodda fe'li funksional ekvivalentlarining invariant ma'nosi esa umumiy o'rinlarda boshqacha va ma'no guruhchalarida boshqacha bo'ladi.

So'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq ma'nolarini ifodalashda خواستن [xāśtan] sodda fe'lining barcha ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlari hamda ma'no guruhlaridan biridagi funksional ekvivalentlari to'g'risidagi mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda, ushbu fe'l funksional ekvivalentlarining umumiy o'rinlardagi hamda alohida ma'no guruhchalaridagi invariantlarini quyidagicha aniqladik.

خواستن [xāśtan] sodda fe'li va uning funksional ekvivalentlari tomonidan *so'ramoq*, *iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolarining turli ottenkalari quyidagilardan iborat: *1) so'ramoq (talab qilmoq, iltimos qilmoq); 2) talab qilmoq; 3) berishini talab qilmoq; 4) iltimos qilmoq; 5) yalinib so'ramoq; 6) xudodan so'ramoq.*

Umumiy *so'ramoq* ma'nosi orqali bir-biriga bog'lanib turadigan *talab qilmoq* ma'nosining turli darajalaridan tortib *iltimos qilmoq* ma'nosining turli darajalarigacha bo'lgan ma'no ottenkalarini o'z ichiga

olgan umumiy ma’noni quyidagicha ta’riflash mumkin bo‘ladi: *biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq*.

Ushbu xulosamizni quyidagi jadval ko‘rinishida ifodalash mumkin:

№	*ma’no variantlari*	*invariant ma’no*
1	so‘ramoq (talab qilmoq, iltimos qilmoq)	biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq
2	talab qilmoq	
3	berishini talab qilmoq	
4	iltimos qilmoq	
5	yalinib so‘ramoq	
6	xudodan so‘ramoq	

خواستن [xāstan] sodda fe’lining funksional ekvivalentlarining qo‘llanilish o‘rinlari xususidagi yuqorida keltirgan misollarimiz خواستن [xāstan] sodda fe’lining *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan barcha ma’no ottenkalarini o‘z ichiga olgan umumiy, ya’ni invariant ma’no bo‘lmish *biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq* ma’nosining mazkur funksional ekvivalentlar orasida ko‘proq خواستن [xāstan] sodda fe’lining o‘zida mujassam bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida خواستن [xāstan] sodda fe’lining *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashdagi umumiy o‘rinlarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘n sakkizta fe’l uchun yagona formal invariant vazifasini o‘tay olishi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga sabab bo‘ladi.

خواستن [xāstan] sodda fe’lining umumiy o‘rinlarda ushbu fe’llarning formal invarianti bo‘la olishi to‘g‘risidagi xulosamizni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

Birinchidan, خواستن [xāstan] sodda fe’li *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda درخواست کردن, تقاضا کردن, خواستار شدن, خواهان شدن, خواهش کردن, استدعا کردن, استعلام کردن, طلبیدن, طلب کردن, خواهشمند بودن, تعارف کردن, مطالبه کردن, خواهنده شدن, دعا کردن, تمنا داشتن, التماس کردن, مسئلت کردن, کردن, طالب شدن fe’llari bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo‘ladi. Bunda nafaqat mazkur fe’llar خواستن [xāstan] sodda fe’lining funksional ekvivalentlari hisoblanadilar, balki خواستن [xāstan] sodda fe’lining o‘zi ham ushbu fe’llardan har birining funksional ekvivalenti bo‘la oladi. Ya’ni bu yerda bir tomonlama emas, balki o‘zaro funksional ekvivalentlik mavjud bo‘lib, خواستن [xāstan] sodda fe’li ham ushbu funksional ekvivalentlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalab kelayotgan خواستن, درخواست کردن, تقاضا کردن, خواستار شدن, خواهان شدن, طلب کردن, طلبیدن, استعلام کردن, استدعا کردن, خواهش کردن, خواهشمند بودن, تعارف کردن, مطالبه کردن, خواهنده شدن, دعا کردن, التماس کردن, مسئلت کردن, تمنا داشتن, کردن, طالب شدن fe’llarining barchasini umumiy qilib faqatgina خواستن [xāstan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin. Holbuki ushbu fe’llarning barchasini umumiy qilib ular orasidagi boshqa fe’l vositasida ta’riflashning iloji yo‘q.

Uchinchidan, خواستن [xāstan] sodda fe’lini umumiy *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda, ya’ni ma’no guruhchalariga bo‘linmagan umumiy holatda gap ma’nosini o‘zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keladigan درخواست کردن, تقاضا کردن, استعلام کردن, طلبیدن, طلب کردن, خواهان شدن, خواستار شدن, مطالبه, تعارف کردن, خواهشمند بودن, خواهش کردن, استدعا کردن, مسئلت کردن, دعا کردن, خواهنده شدن, کردن, التماس, تمنا داشتن, طالب شدن fe’llaridan har birining o‘rnida ishlatish mumkin. Holbuki ushbu fe’llardan boshqa birortasi bunday umumiy vazifani bajara olmaydi, ya’ni ushbu fe’llardan boshqa birortasini mazkur fe’llardan har birining o‘rnida ishlatib bo‘lmaydi.

Invariant variantlarning barchasiga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam qilishi, biroq varaintlar invariantning barcha xususiyatlarini aks ettira olmasliklari to‘g‘risidagi qarashlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, formal invariant funksional ekvivalentlarning barchasiga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi, biroq funksional ekvivalentlar formal invariantning barcha xususiyatlarni aks ettira olmaydilar. Xuddi shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalab keladigan barcha fe’llarni umumiy qilib faqatgina خواستن [xāstan] fe’li vositasida ta’riflash mumkinligi hamda خواستن [xāstan] sodda fe’lining *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda shu ma’nolarni ifodalab keladigan boshqa barcha funksional ekvivalentlardan har birining o‘rnida ishlatish mumkinligi barobarida ushbu ma’nolarni ifodalashda o‘zaro funksional ekvivalent bo‘lgan fe’llardan boshqa birortasining bunday vazifalarni bajara olmasligi خواستن [xāstan] sodda fe’lining *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashdagi umumiy o‘rinlarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘n sakkizta fe’l uchun yagona formal invariant vazifasini o‘tay olishi to‘g‘risida xulosamizni tasdiqlaydi.

Quyida خواستن [xāstan] sodda fe’lining formal invariant sifatida *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda ishlatiladigan barcha fe’llar – funksional ekvivalentlardan har birining o‘rnida ishlatish mumkinligiga ayrim misollar keltiramiz:

№	*funksional ekvivalent ishtirokida*	*formal invariant ishtrokida*	*o‘zbekcha tarjimasi*
1	**درخواست کمک کرد**	**خواست کمک کنند**	**yordam so‘radi, yordam berishlarini so‘radi.**
	(پلیس اسرائیل برای پیدا شدن سربازش از مردم **درخواست** کمک **کرد**.) (ir.sputniknews.com)	(پلیس اسرائیل برای پیدا شدن سربازش از مردم **خواست** کمک کنند.) *(matn o‘zgartirildi)*	Isroil politsiyasi o‘z askarining topilishi uchun odamlardan yordam **so‘radi**.
2	**خواستار برکناری او شد**	**خواست تا بر کنار شود**	**uning ishdan chetlatilishini talab qildi.**
	(ترامپ **خواستار** برکناری رئیس دموکرات مجلس نمایندگان آمریکا **شد**.) (www.aa.com.)	(ترامپ **خواست** رئیس دموکرات مجلس نمایندگان آمریکا برکنار شود.) *(matn o‘zgartirildi)*	Tramp AQSh Vakillar palatasi spikerini lavozimidan chetlatilishini **talab qildi**.
3	**التماس می کرد دخترش را تحویل بهزیستی بدهد**	**می خواست دخترش را تحویل بهزیستی بدهد**	Qiziga farovon hayotni **iltimos qilardi.**
	(ماجرای مادری که التماس می کرد دخترش را تحویل بهزیستی بدهد!) (www.jama-ran.ir)	(ماجرای مادری که **می خواست** دخترش را تحویل بهزیستی بدهد.) *(matn o‘zgartirildi)*	Qiziga farovon hayotni **iltimos qilayotgan** (so‘rayotgan) onaning hikoyasi.
4	**از خدا مسئلت کردند**	**از خدا خواستند**	**xudodan so‘radilar**
	(به گزارش خبرگزاری شبستان از یزد، مردم یزد... در مسجد ملااسماعیل دعای «استسقاء «طلب باران رحمت»... از خداوند متعال **مسئلت کردند**.) (shabestan.ir)	(به گزارش خبرگزاری شبستان از یزد، مردم یزد... در مسجد ملااسماعیل دعای «استسقاء»طلب باران رحمت»... از خداوند متعال **خواستند**.) *(matn o‘zgartirildi)*	‘Shabeston’ axborot agentligining Yazd shahridan bergan xabariga ko‘ra, Yazdliklar Mulla Ismoil masjidida Qodir xudodan Istisqo - Rahmat yomg‘irini so‘rashdi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda خواستن [xāstan] sodda fe’liga funksional ekvivalent sifatida qo‘llaniladigan fe’llar ular vositasida ifodalanayotgan ma’no ottenkalariga ko‘ra olti ma’no guruhchasiga bo‘linadi. Agar ushbu ma’no ottenkalarini o‘z ichiga olgan umumiy, ya’ni invariant ma’no bo‘lmish *biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq* ma’nosining mazkur funksional ekvivalentlar orasida ko‘proq خواستن [xāstan] sodda fe’lining o‘zida mujassam bo‘lishi kuzatilsa, ushbu ma’no ottenkalari asosida shakllangan ma’no guruhlarining har biri o‘zining alohida umumiy, ya’ni invariant ma’nosiga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

№	*ma’no variantlari*	*invariant ma’no*
1	so‘ramoq (talab qilmoq, iltimos qilmoq)	biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq
2	talab qilmoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini qat’iyat bilan so‘rab murojaat qilmoq
3	berishini talab qilmoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini bunga o‘zining haqqi borligini ta’kidlagan holda qat’iyat bilan so‘rab murojaat qilmoq
4	iltimos qilmoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini muloyimlik bilan so‘ramoq
5	yalinib so‘ramoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini o‘zining chorasizligi nuqtai nazaridan astoydil so‘rab murojaat qilmoq
6	xudodan so‘ramoq	ojiz banda sifatida qodir Xudodan o‘ziga yoki boshqa kishiga lutf, karam, yordam sifatida biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq

Ushbu olti ma’no guruhidagi olti invariant ma’no esa ana shu guruhlardan har birida unga kiruvchi fe’llardan – funksional ekvivalentlardan birida mujassam bo‘ladi. Ya’ni mazkur fe’llar ushbu ma’no guruhlaridan har birida o‘z invariantiga ega bo‘ladi. Chunki, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, خواستن [xāstan] sodda fe’li hozirgi fors tilida umumiy *so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda ishlatiladigan fe’llarning barchasi uchun invariant vazifasini bajara olsa-da, ushbu fe’llar vositasida ifodalanayotgan ma’no ottenkalariga ko‘ra bo‘lingan ma’no guruhchalarining barchasida ham ma’noni ifodalovchi asosiy so‘z vazifasida kelmaydi.

So‘ramoq (iltimos qilmoq, talab qilmoq) ma’nolarini ifodalashda خواستن [xāstan] sodda fe’li funksional ekvivalentlarining ma’no guruhchalaridagi invariantlari quyidagilardan iborat:

1. *Iltimos qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ham, *talab qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ham ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib خواستن [xāstan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib خواستن [xāstan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misollar:

درخواست کمک کرد / کمک خواست. – *yordam so‘radi.*
تقاضای مرخصی نمود / مرخصی خواست. – *ta’til so‘radi.*
طلب یاری کرد / یاری خواست. – *yordam so‘radi.*

2. *Talab qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib درخواست کردن [darxāśt kardan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib, درخواست کردن [darxāśt kardan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misollar:

خواستند که حقوقشان اضافه شود / درخواست کردند که حقوقشان اضافه شود. – *ish haqlarining oshirilishini talab qildilar.*
خواستار برگزاری انتخابات شدند / درخواست کردند تا انتخابات برگزار شود. – *saylovlar o‘tkazilishini talab qildilar.*
حضور او در اجلاس را طلب کردند / حضور او در اجلاس را درخواست کردند. – *uning majlisda qatnashishini talab qildilar.*

3. *Berishini talab qilmoq* ma’no ottenkasini ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib طلب کردن [talab kardan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib, طلب کردن [talab kardan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misol:

او خسارت وارده را از من مطالبه کرد / او خسارت وارده را از من طلب کرد. – *U mendan yetkazilgan zararni qoplashni (to‘lashni) talab qildi.*

4. *Iltimos qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib خواهش کردن [xāheš kardan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib, خواهش کردن [xāheš kardan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misol:

تمنا دارم که به مشکل ما نیز توجه کنید / خواهش می کنم که به مشکل ما نیز توجه کنید. – *Bizning muammomizga ham e’tibor berishingizni iltimos qilaman.*

5. *Yalinib so‘ramoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib التماس کردن [eltemās kardan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib, التماس کردن [eltemās kardan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misol:

او گریه کنان می خواست (خواهش می کرد) که آزادش کنند / او گریه کنان التماس می کرد که آزادش کنند – *U yig‘laganicha uni qo‘yib yuborishlarini yalinib so‘rardi.*

6. *Xudodan so‘ramoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib خواستن [xāśtan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib خواستن [xāśtan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misol:

از خدای مهربان مسئلت می کنم که ... / از خدای مهربان می خواهم که ... – *mehribon xudodan so‘raymanki ...*

Eslatib o‘tilgan ma’no guruhchalaridagi invariantlarni quyidagi jadval shaklida ko‘rsatish ham mumkin:

	ma’no guruhchalari	***funksional ekvivalentlar***	***formal invariantlar***
1	*so‘ramoq (iltimos qilmoq, talab qilmoq)*	خواستن درخواست کردن تقاضا کردن خواستار شدن خواهان شدن طلب کردن طلبیدن استعلام کردن استدعا کردن تعارف کردن دعا کردن تمنا کردن	خواستن
2	*talab qilmoq*	درخواست کردن تقاضا کردن خواستار شدن خواهان شدن طلب کردن طلبیدن استعلام کردن استدعا کردن مطالبه کردن خواستن خواهنده شدن طالب شدن	درخواست کردن
3	*berishini talab qilmoq*	مطالبه کردن طلب کردن درخواست کردن خواستن	طلب کردن
4	*iltimos qilmoq*	خواهش کردن خواهشمند بودن التماس کردن تمنا داشتن درخواست کردن تقاضا کردن خواستار شدن خواستن خواهان شدن طلب کردن	خواهش کردن
5	*yalinib so‘ramoq*	التماس کردن خواهش کردن تمنا داشتن خواستن	التماس کردن
6	*xudodan so‘ramoq*	دعا کردن مسئلت کردن خواستن	خواستن

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Badiiy adabiyotlar

ابو نصر احمدی جام. روضة المذنبین و جنة المشتاقین. تهران، 2731.
(Abu Nasr Ahmadi Jom. Ravdat ul-mo‘znebin va jannat ol-mo‘shtoqiyn. Tehron, 1372.)

بزرگ علوی. چمدان. تهران، امیر کبیر، 7531.
(Bo‘zo‘rg Alavi. Chamedon. Tehron, Amir kabir, 1357.)

جلال آل احمد. سه تار. تهران، انتشارات فردوسی. چاپ دوم، 9431.
(Jalol Ol-e Ahmad. Se tor. Tehron. Enteshorot-e

Ferdo‘usi. Chop-e do‘vvo‘m. 1349.)
خانلری. نمونه هایی از نثر فصیح فارسی معاصر. تهران، بی نا، 8331.
(Xonlari. Nemunehoyi az nasr-e fasih-e forsi-ye mo‘oser. Tehron, Bino, 1338.)
صادق هدایت. سه قطره خون. تهران، امیر کبیر، 1431.
(Sodeq Hedoyat, Se qatr-e xun. Tehron, Amir Kabir, 1341.)
محمد علی جمال زاده. قصه ما به سر رسید. تهران، شرکت مؤلفان و مترجمان ایران، 7531.
(Mohammad Ali Jamolzode, Qesse-ye mo be sar resid. Tehron, Sherkat-e mo‘allefon va mo‘tarjemon-e iron, 1357.)
محمد محمود. زمین سوخته. تهران، نشر نو، 1631.
(Mo‘hammad Mahmud. Zamin-e suxte. Tehron, Nashr-e no‘u, 1361.)
محمد مصدق. خاطرات و تألمات دکتر مصدق. تهران، علمی، 0631.
(Mo‘hammad Mosaddeq. Xoterot va ta’allo‘mot-e do‘kto‘r Mo‘saddeq. Tehron, Elmiy, 1360.)
مرتضی مشفق کاظمی. تهران مخوف. تهران، ابن سینا، 0431.
(Mortazo Moshfeq Kozemi. Tehron-e maxuf. Tehron, Ebn-e Sino, 1340.)

Ommaviy axborot vositalari va internet saytlari
پایگاه اطلاع رسانی ابتکار. تاریخ انتشار خبر: 72 اسفند 2991: www.ebtekarnews.com
(Poygoh-e ettelorasoni-ye ebtekor. Torix-e enteshorot-e xabar: 27 esfand, 1992.)
پایگاه اطلاع رسانی عصر خودرو. تاریخ انتشار خبر: 13 فروردین 2991: www.asrekhodro.com
(Poygoh-e ettelorasoni-ye asr-e xo‘dro‘. Torix-e enteshorot-e xabar. 31 farvardin, 1992.)
روزنامه کیهان، مورخ 2931/11/8
(Ruznome-ye keyhon, mo‘arrex-e 1392/11/8.)
سایت تحلیلی عصر ایران: www.asriran.com.
(Soyt-e tahlili-ye asr-e iron.)
سایت خبرگزاری تسنیم: www.tasnimnews.com.
(Soyt-e xabargo‘zori-ye tasnim.)
سایت خبرگزاری جمهوری اسلامی: www.irna.ir.
(Soyt-e xabargo‘zori-ye jo‘mhuri-ye eslomi.)
سایت خبرگزاری دانشجویان ایران (ایسنا): http://isna.ir.
(Soyt-e xabargo‘zori-ye doneshjuyon-e iron (isno).)
سایت خبرگزاری صلح: http://solhnews.org.
(Soyt-e xabargozori-ye so‘lh.)
محبت نیوز. آژانس خبری مسیحیان ایران. تاریخ انتشار خبر: 5 مهر 1931: www.mohabatnews.com.
(Mohabat nyus. Ojons-e xabari-ye masihiyon-e iron. Torix-e enteshorot-e xabar. 5 mehr 1391.)
edu.kaums.ac.ir/Default.aspx?PageID=205
ir.sputniknews.com/world/201910285404609-%D9%BE%D9%84%DB%8
shabestan.ir/detail/News/439299
www.aa.com.tr/fa/%D8%AC%D9%87%D8%A7%D9%86/%D8%AA%
www.jamaran.ir/%D8%A8%D8%AE%D8%B4-%D8%AC%DB%8C-